

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(61 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(61 KB\)](#)

O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limining navbatdagi VI Konferentsiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi B.Yangibaevning tabrik so'zi

Assalomu alaykum hurmatli konferentsiya delegatlari, aziz mehmonlar!

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan shahdam intilayotgan mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan 2008 yilning "Yoshlar yili", 2010 yilning "Barkamol avlod yili", 2014 yilning esa "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi yosh avlod kamoloti yo'lida amalga oshirilayotgan hayrli ishlarni yanada jadallashtirdi. Bugun O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 18 milliondan ortiq yoshlarning kundalik hayoti, ertangi taqdiri mamlakat taqdiri bilan bog'liq.

Bugungi kunga qadar, yoshlar manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga oid 22 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15 ta Farmoni va 11 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 41 ta qarori, 32 ta idoraviy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingani davlatimizda yoshlarga oid siyosatning izchil olib borilayotganidan dalolat beradi.

Muhtaram Prezidentimizning biror bir asari, nutqi va ma'ruzasi yo'q-ki, unda yoshlar masalasi, ularning taqdiri va kelajagi haqida to'xtalmagan bo'lsalar.

Ularda, bugungi kunda jahonda hukm surayotgan globalashuv davrida yoshlar ma'naviyati rivoji, taqdiri, uning jamiyatdagi roli va o'rnini, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlod kelajagini o'ylab ilgari surilgan fikr va g'oyalari ta'lim-tarbiya ishlarimizda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

"Yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturlari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasida tegishli qarorlar qabul qilinib, yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida qator ishlar amalga oshirilmog'da.

Shu yili mamlakatimiz yoshlari uchun yana bir alohida ahamiyatga ega hujjat, ya'ni 6 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2124-sonli qarori imzolandi. Ushbu qaror yosh avlodning ham ma'nani, ham aqlni, ham jismonan barkamol avlod bo'lib yetilishida, jamiyatga o'ziga ishongan, mustaqil fikrli, komil insonlar bo'lib kirib borishida zarur bo'lgan barcha omillarni o'z ichida mujassam etgan.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlashimiz joizki, yoshlarimizning sog'lom va barkamol voyaga yetishlari ayniqsa, ma'naviy kamoloti uchun mustaqillik yillarida munosib zamin yaratildi va bu jarayon ayni paytda qizg'in davom etmoqda. Albatta, yurt kelajagi, islohotlar samarasi bilimli, intiluvchan yoshlar qo'lida. Jahon miqyosida o'tkazilayotgan anjumanlar, turli tanlovlarda O'zbekiston farzandlarining kimligini dunyoga ko'rsatib qo'yayotgan iste'dodli, bilimli yoshlarimizning yutuqlari fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Bu borada 2013 yili yosh xonanda Navro'z Muxamediyarov "Nihol" mukofoti, 2012 yili Zamira Alieva va 2013 yili esa Aysholpan Orazimbetovalar "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti sovrindori bo'lishdilar.

Har yili kollej yoshlari orasida o'tkazilib kelinayotgan "Siz qonunni bilasizmi?" ko'rik tanlovida Qoraqalpog'iston yoshlari faol ishtirok etib, O'zbekiston miqyosida qatorasiga 2 yil birinchilikni egallab kelmoqda.

Shu yili Termiz shahrida yosh olimlar va talabalar orasida o'tkazilgan "XXI asr-Intelektual asri" ilmiy-amaliy Anjumanida Qoraqalpog'iston davlat universitetining talabasi Nasiba Qutlimurotova birinchi o'rinni egalladi.

2013 yil uchun tasdiqlangan Yoshlarga oid Dastur doirasida 2 mingdan ortiq tadbirlar tashkillashtirilib, ularga 500 mingdan ortiq yoshlar qatnashdi.

Shuningdek, Dasturda belgilangan vazifalarga muvofiq, 2013 yil davomida:

- 1592 Yosh tadbirkor, fermer va hunarmandlarga 20,3 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlar;
- 82 yosh oilalarga 5,8 mlrd. so'mlik ipoteka kreditlari,
- 1211 yosh oilalarga 5,3 mlrd. so'mlik iste'mol kreditlari;
- 1297 talaba yoshlarga 5,7 mlrd so'mlik ta'lim kreditlari ajratildi.

Oliy ta'lim muassasalari va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash maqsadida 101 ta bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari o'tkazildi.

Iste'dodli yoshlarning ijodiy faolligini qo'llab-quvvatlash sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha jami 740 ta umumta'lim maktablari, 93 kasb-xunar kolleji, 10 akademik litsey, 6 oliy ta'lim muassasalarida yil davomida 529 ta tadbirlar o'tkazilib, bu tadbirlarga jami 48,0 ming nafar yoshlar jalb etildi.

Sport va o'sib kelayotgan avlodning jismoniy tarbiyasini rivojlantirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasida ishlab

chiqilgan rejalar asosida 2013 yil davomida 486 ta sport musobaqalari, seminar va uchrashuvlar tashkil etilib, bu tadbirlarga jami 88 ming nafar yoshlar jalb etildi.

Bu yilgi Yoshlarga oid Dastur doirasida:

- yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning bandligini ta'minlash, ular uchun turar joy ajratish, uzoq muddatli imtiyozli kreditlar berish;
- kollej bitiruvchilari biznes loyihalarini moliyalashtirish;
- yoshlarni tadbirkorlik bilan shug'ullanishga keng jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- shahar va tumanlarda, ayniqsa chekka qishloqlarda sport ob'ektlarini yangidan qurish va rekonstruktsiya qilish;
- yoshlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish tadbirlari;
- Yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;
- Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;
- Barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

Hurmatli Konferentsiya ishtirokchilari, aziz yoshlar!

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida albatta, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati ham munosib va faol ishtirok etib kelmoqda. Mamlakat yoshlarini ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirish, tashabbuskorlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tashkilotning asosiy vazifasidir. Hozirgi kunda **Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 1 ta shahar va 14 ta tumanlarda, korxon va o'quv muassasalarida tashkil etilgan Harakatning 1170 ta boshlang'ich tashkilot o'z atrofiga 290 mingdan ortiq yoshlarni birlashtirgan.** Ana shu boshlang'ich tashkilotlar orqali yoshlar bilan muntazam ravishda mashg'ulotlar, turli tadbirlar olib borilmoqda, yoshlarning talab va takliflari o'rganilmoqda.

Yoshlar juda katta bunyodkor kuch. Bu kuchni munosib shakllantirish, to'g'ri yo'naltirish lozim. Eng avvalo, yoshlarning ma'naviy olamini boyitish, dunyoqarashini rivojlantirish muhim vazifa. Xuddi shu maqsadda ko'plab loyihalar ishlab chiqilgan va ularni amalga oshirish jarayoniga yoshlarimizni kengroq jalb etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Jumladan, "**Biz buyuk yurt farzandlarimiz**", "**Kamolot malikasi**", "**Mening biznes g'oyam**", "**Yosh tadbirkor-yurtga madadkor**", "**Shunqorlar**", "**Siz qonunni bilasizmi?**", "**Huquq va yoshlar**", "**Ajdodlar me'rosi-kelajak poydevori?**", "**Yurtimni obod etaman**", "**Baxtli bolalik**", "**Biz yoshlar g'iyohvandlikga qarshimiz**", "**Qullikka rozi bo'lmang**", "**Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz**" va boshqa bir qator loyihalar yuz minglab yoshlarni qamrab olayapti. Buyuk o'tmishimizni, milliy qadriyatlarimizni yoshlar ongiga singdirishda, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, sog'lom turmush tarzini tanlashda, o'z huquq va burchlarini to'g'ri anglab yetishlarida bunday tadbirlarning o'ziga xos ahamiyati bor.

Yoshlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida "Kamolot" tashabbusi bilan **Nukus shahar** hamda Respublikamizning eng chekka hududlari **Mo'ynoq, To'rtko'l, Taxtako'pir** tumanlari kengashi qoshida tashkil etilgan "Yoshlar ijtimoiy xizmatlari markazlari"ning ham hissasini ta'kidlash lozim. Bu markazlar yoshlarga kasb o'rgatadi, yoshlar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qiladi, yoshlarning iste'dod va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash yuzasidan amaliy dasturni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Bugungi kunda ushbu markazlarda tajribali mutaxassislar yoshlarga kasb-hunar va bilim sirlarini o'rgatib kelyapti.

Yoshlarni yoz mavsumida vaqtincha ish bilan ta'minlash maqsadida o'tkaziladigan an'anaviy "Bunyodkor" yoshlar mehnat guruhlari loyihasini alohida ta'kidlash lozim. Loyiha doirasida 2013 yilgi mavsum davomida **1475** nafar yoshlarni uyushtirgan **110** guruh tashkil etildi va mehnat jamoalarida, servis va xizmat ko'rsatish sohalarida yana ko'plab jabhalarda amalga oshirilayotgan ishlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Yuqorida tilga olingan loyihalar harakat tomonidan amalga oshirilgan ishlarning bir qismi, xolos. Bunday yirik loyihalar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar miqdori va saviyasi yildan yilga o'smoqda.

Harakat faoliyati samaradorligini oshirishda hamkor tashkilotlarning ham o'rni katta. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Qoraqalpog'iston Respublikasi Vasiylik Kengashi tomonidan ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, profilaktik hisobda turuvchi yosh o'smirlar uchun har yili tashkillashtirilib kelayotgan harbiy-sport sog'lomlashtirish oromgohi bevosita Vasiylik Kengash homiyligida tashkillashtirilib kelinmoqda.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, bugungi kunda yoshlar masalasi davlat siyosatida, xalqimiz hayotida alohida ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa farzandlarimizga bo'lgan g'amxo'rlik, kelajakka yuksak ishonch belgisidir.

Hurmatli Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida - "Biz tayanchimiz va suyanchimiz, g'ururimiz va iftixorimiz bo'lmish bolalarimizga, farzandlarimizga ishonch bilan, hurmat-e'tibor bilan qarashni kelajagimizga bo'lgan ishonch, millatimizga, xalqimizga bo'lgan hurmat-ehtirom ifodasi deb bilamiz" - deb, ta'kidlagan edi.

Zero, hayotimizning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan, zimmalaridagi mas'uliyatni chuqur his etayotgan yosh yigit-qizlarimizni ko'rganda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning chinakam davomchilari voyaga yetayotganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Bu yo'lida siz aziz yoshlarga kuch-g'ayrat, shijoat va ulkan zafarlar tilab qolamiz.

E'tiboringiz uchun rahmat!

19 fevral, 2014 yil

Berdaq nomidagi musiqiy teatri

Ko'rib chiqildi:

Izlash

- 
- 
- 

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)